

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Xodjayev Sobir KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
3. Turdikulov Shuxrat SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
4. Mo‘minov Zokirjon ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
5. Xoliqnazarov Rashidjon DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
6. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
7. Nurullayeva Umida XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
8. Nazarova Nilufar STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
9. A‘zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
10. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
11. Karimova Maftuna RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
12. Butoyev Ilxom SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
13. Bozorova O‘lmasxon YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

A'zamova Kumush

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti
e-mail: azamovakumush@gmail.com

INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399519>

ANNOTATSIYA

Maqola inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlatning regulyativ funksiyalarini rivojlantirishni tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, sharq mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshbandiy, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab, Bedil, Behbudiy, Avloniylar hamda g'arb mutafakkirlari tomonidan inson qadri tushunchasiga berilgan nazariy jihatlar yoritilgan.

Mavzuning nazariy o'rganilishi jihatidan "Ijtimoiy davlat" tushunchasi ilmiy nuqtai nazardan o'rganilgan va ijtimoiy davlat nimaligi, uni nimalarda namoyon bo'lishi, ijtimoiy davlatning belgilari, vazifalari, sotsializmdan farqi, ijtimoiy davlat tushunchasi, bugungi kundagi ijtimoiy davlatlar, ijtimoiy davlatning shaxs hayotidagi o'rni, ijtimoiy davlatning belgilari va funksiyalari ochib berilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar negizida inson qadrini yuksaltirish hamda ijtimoiy davlatning regulyativ funksiyalarini amaliy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inson qadri, ijtimoiy davlat, regulyativ funksiyalar, mutafakkir, davlatning belgilari, vazifalari, shaxs.

Азамова Кумуш

Базовый докторант Академии государственного
управления при Президенте Республики Узбекистан
e-mail: azamovakumush@gmail.com

РАЗВИТИЕ РЕГУЛИРУЮЩИХ ФУНКЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЦЕННОСТИ ЧЕЛОВЕКА

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу развития регулирующих функций социального государства в повышении ценности человека. Кроме того, освещены теоретические аспекты человеческой ценности у восточных мыслителей Хорезми, Фараби, Аль-Бухари, Ат-Термизи, Беруни, Ибн Сина, Наджмуддин Кубра, Ясави, Накшбанди, Улугбек, Наваи, Машраб, Бедиль, Бехбуди, Авлани, а также мыслителей Запада.

В плане теоретического изучения темы с научной точки зрения изучено понятие «Социальное государство», а также что такое социальное государство, каковы его проявления, признаки и функции социального государства, отличие от социализма, рассмотрены

современные социальные государства, личность в социальном государстве, признаки и функции социального государства. Помимо этого, на основе демократических реформ, проводимых в Республике Узбекистан в последние годы, раскрываются практические аспекты повышения человеческого достоинства и регулятивных функций социального государства.

Ключевые слова: человеческая ценность, социальное государство, регулятивные функции, мыслитель, знаки, функции государства, личность.

Azamova Kumush

Basic doctoral student Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan
e-mail: azamovakumush@gmail.com

DEVELOPMENT OF REGULATORY FUNCTIONS IN INCREASE OF HUMAN VALUE

ANNOTATION

The article is devoted to the analysis of the development of the regulatory functions of the social state in increasing human value. Also, Eastern thinkers Khorazmi, Farabi, Al-Bukhari, At-Termizi, Beruni, Ibn Sina, Najmuddin Kubra, Yassawi, Naqshbandi, Ulug'bek, Nawai, Mashrab, Bedil, Behbudi, Awlani, as well as Western thinkers also contributed to the studies of theoretical aspects of human value.

In terms of the theoretical study of the topic, the concept of "social state" has been studied from a scientific point of view, such points as what is the social state, what are its manifestations, the signs and functions of the social state, its difference from socialism, the concept of the social state, today's social states, the personality of the social state and its the place in his life, the signs and functions of the social state are revealed. At the same time, on the basis of the democratic reforms carried out in the Republic of Uzbekistan in recent years, the practical aspects of increasing human dignity and the regulatory functions of the social state have been revealed.

Key words: human value, social state, regulatory functions, thinker, signs, functions of the state, personality.

KIRISH.

Insonning o'ziga xos qadriyati, uni shaxs sifatida tavsiflovchi ichki qadr-qimmatini borligi haqidagi ta'kid juda qadimiydir. Bizga ma'lumki inson alloh tomonidan yaratilgan barcha mavjudodlar ichida gultoji hisoblanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida: "Mo'min kishi Alloh taolo nazdida farishtalardan ham mukarram va afzaldir", deb marhamat qilganlar. Ulamolalar ushbu hadisning sharhida bunday deydi: "Farishtalarni Alloh taolo faqat toat-ibodat va ba'zi maxsus vazifalarni ado etish uchungina yaratgan. Shuning uchun ularda aql bor-u, lekin nafs-u shahvat yo'q. Hayvonotda esa nafs-u shahvat bor-u, lekin aql yo'q. Ammo odamzodda aql ham bor, nafs-u shahvat ham bor. Aql uni to'g'ri yo'lga, savobli ishlarga boshlasa, nafs-u shahvat faqat nafsni qondirish va buning uchun har qanday gunoh-u ma'siyat ishlarga boshlaydi. Binobarin, agar insonning aqli nafs-u shahvatidan g'olib kelib, uning amriga muvofiq harakat qilsa, demak, u farishtalardan ham ulug' maqomda yurgan bo'ladi". Insonni qadrlash uni e'zozlash qadim zamonlarga borib taqaladi. Bizga tarixdan ma'lumki inson qadr-qimmatini islom dinnida ulug'langan. Islom inson qadrini hamma vaqt, har yerda ulug'lashni buyurgan, uning sharafini oliy darajaga ko'targan. Dinimizda inson aziz va mukarram zot sifatida ulug'lanadi hamda kishi hayotining ruhiy va ma'naviy jihatdan komillikka yetishishiga katta e'tibor beradi. Yuqoridagi oyati karimada Alloh taolo: "Insonni aziz va mukarram qildik", deb marhamat qiladi. Tafsir kitoblarida insonning qaysi ne'matlar tufayli mukarram ekani to'g'risida ko'p misollar keltirilgan. Ba'zi mufasssirlar mazkur oyatni sharhlab, insonga ato etilgan ne'matlarni ikkiga taqsim qilgan. Birinchisi, jismoniy ne'matlar. Bunga misol sihat-salomatlik, tinch-farovon turmush kabilar. Ikkinchisi, ma'naviy ne'matlar bo'lib, unga imon, islom, hidoyat, axloq, insof-u tavfiq singari ijobiy sifatlarni misol qilish mumkin.

Demak, insonning ruhiy-ma'naviy olami boy bo'lsa, uning qadr-qimmatini shuncha oshadi. Inson qancha imonli, diyonatli bo'lsa, Allohga muhabbati va itoati qanchalik ulug' bo'lsa, shundagina uning darajoti yuqori bo'ladi.

Shuningdek, islom dini paydo bo'lgandan keyin bu muqaddas dinda ayollarga yuksak hurmat va qullarga bo'lgan munosabat ham o'zgargan. Buni biz payg'abarimiz Muhammad S.A.V oilasida yaqol ko'rishimiz mumkin. Chunki payg'abarimiz o'z ayollariga va qullariga bag'oyatda yaxshi munosabatda bo'lganlar. Hattoki qul qilinib sotilayotgan bolani o'zlariga o'g'il qilib olganliklarini sahih hadislardan bilishimiz mumkin. Markaziy Osiyoning ijtimoiy-madaniy merosida inson qadri ijtimoiy maqomi, tabaqalararo munosabatlar doirasida ularni qo'llab-quvvatlash zarurati dastlab «Avesto»da zardo'shtiylikka xos ezgulik ta'limotida, keyinchalik islom dinida Qur'oni karim oyatlari va hadislarida asoslandi [1].

G'arb olimlari bu borada, asosan, Evropa madaniy merosi va g'oyalariga tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessans davrida inson qadrini qo'llab-quvvatlash masalasida ma'rifatparvar mutafakkirlar hamda davlat arboblari ijtimoiy qarashlari doirasida muqobil yondashuvlar shakllandi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Xo'ja Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro inson qadri va uni yuksaltirish insonni komil inson darajasiga erishishi bu taqdiri azal deb bildilar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Axror Valiy, Yusuf Xos Xojib, Nizomulmuluk, Alisher Navoiy hazratlari ilmiy merosida, har bir inson boshqalar manfaati, yurt tinchligi «ojizlar», «g'ariblar» manfaati uchun qayg'urish ijtimoiy adolat mezonlaridan biri sifatida tavsiflandi.

Davlat arboblardan qoraxoniylar Ibrohim ibn Nasr, keyinroq buyuk bobomiz Amir Temur va uning avlodlaridan Umarshayx Mirzo, Ulug'bek Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur davrida insonlarga bo'lgan e'tibor turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy me'yorni ta'minlashda katta yutuqlarga erishildi. Shuningdek Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni bosib olgandan keyin u yerda ko'plab ijtimoiy masalalarni adolat bilan yechgan xususan eri o'lgan ayolni eri bilan birga yoqilishini bekor qilgan. Ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish inson qadrini yuksaltirishda jadid ma'rifatparvarlari Abdulla Avloniy, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, hamda Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalarning ilmiy ijodida ifodalandi.

G'arb olimlaridan G.Spenser, T.Maltus va boshqalar biologik determinizm ta'sirida ojizlarni qo'llab-quvvatlashni tabiat qonuniyatiga zid deb, bildilar. A.Smit, M.Veber, E.Dyurkgeym, P.Sorokin, E.Meyo, U.Beveridj, T.Parsons, R.Merton, L.Fon Bertalanfi, A.Maslouning ilmiy tadqiqotlarida, aksincha, gumanistik an'analarga muvofiq moddiy ne'matlarning oqilona taqsimlash muhtojlarning manfaatlari birlamchi bo'lishi, ularga munosib turmush tarzini kafolatlash zamonaviy taraqqiyot poydevori sifatida konseptual talqin qilinib barcha insonlar teng bo'lishini ko'zda tutgan.

Iqtisodiyot sotsiologiyasi doirasida F.Teylor, F.Ryotlisberg, M.Follett, J.Gelbreyt, T.Shuls, Y.Shumpeter, A.Marshall, A.Pigu, J.Keyns, A.Myuller-Armak, L.Erxard, Epsing-Andersen, E.Erikson, Muxammad Yunus, Sh.Razavi, L.Pulkkinen, N.Xonka va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida inson qadrini yuksaltirishda moddiy-moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali muhtojlikdan chiqarish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz olimlari M.Bekmurodov, Sh.Sodiqova, T.Matibayev, T.Narbayeva, A.Umarov, A.Yuldashev, A.Kaxxarov, O.Hayitov, B.Farfiyev, O.Abduazimov, B.Karimov, M.Ganiyeva, N.Latipova, F.Parmanov, H.Abduramanov, A.Xolbekov, A.Seitov, U. Sabirova, M.Pardayev, X.Abulqosimov, F.Nabiyev va boshqalar mamlakatimizda stratifikatsion jarayonlar, aholining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi, ijtimoiy muvozanatga tahdid soluvchi omillar, aholining turli qatlamlari, jumladan, keksalarni ijtimoiy himoyalashda maqsadli yondashuvlar, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirishda ijtimoiy hamkorlik, ehtiyojmandlik va kambag'allikdan himoyalash, shuningdek avvalo inson qadrini yuksaltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tishgan [10].

Jamiyatning har bir a'zosini huquqi, erkinliklarini ustuvor ta'minlash, erkin va farovon hayot kechirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qildik. Bu faoliyatimizning huquqiy asosi qilib bosh qomusimiz Konstitutsiyamizda alohida normalar ham kiritildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deb belgilab qo'yilgan [2].

Shundan kelib chiqsak, 2022-yilni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilinishining o'zida ham bu sohada islohotlarning mantiqiy davomini ko'rish mumkin. Har bir davlat o'z fuqarolari uchun qulay sharoitlarni yaratish, huquqiy demokratik davlat barpo etishi bugungi kunning eng ahamiyatli funksional vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning naqadar muhimligini butun dunyo davlatlarining ko'pchiligi demokratiyani, huquqiy davlat barpo etishni ilgari surayotganligida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, bizning yurtimiz O'zbekiston ham demokratik davlat barpo etish yo'lidan ketmoqda.

Davlatimizning demokratiya yo'lidan ketganligini tasdiqlagan holda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarni keltirib o'tamiz: "Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar." [3]. Bu fikrning davomi sifatida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Inson qadri hamda huquqlari to'g'risidagi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin, "Konstitutsiyamizda oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan inson huquqlarini ta'minlash masalasi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi" [4].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar inson qadrini hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, inson qadri uchun ustun bo'lgan joyda rivojlanish-progress bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturining "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 barobarga qisqartirish" vazifasi belgilangan. Natijada, ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan oilalar hamda shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish tartibini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Og'ir sharoitli oilalarda latent muammolarni yakka tartibda aniqlab, ularda ijtimoiy faollikni mahallalarda shakllantirish orqali ijtimoiy sotsiologik tizimini (tibbiy ko'riqdan o'tkazish, bepul dori-darmon, stasionar sharoitda sog'liqlari tiklanishi va tibbiy-ijtimoiy patronaj xizmatlari, sihatgoh va dam olish uylariga yo'llanmalar ajratish) tashkil etilishi asoslanganligiga oid xulosalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi buyurtmasiga binoan 2021-2022 yillarda Toshkent shahar, Toshkent viloyati tuman (shahar) hokim o'rinbosarlarini sohalar bo'yicha malaka oshirish kurslarida amaliyot moduli (30 soat) shaklida malaka oshirish kurslarining o'quv rejasiga kiritildi va yuqorida qayd etilgan rahbarlarning amaliy faoliyatiga tatbiq etildi [5]. Natijada, viloyatlar, tuman (shahar) hokim o'rinbosarlarining mahallalarda «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» ga kiritilgan toifalar bilan ishlash jarayonida muammolarni kompleks-tizimli aniqlab, ularga ijtimoiy ko'mak va ijtimoiy xizmat ko'rsatilayotgan yordamlarni muntazam baholab borishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlatning regulativ funksiyalarini tahlil qilishdan oldin uning ijtimoiy belgilariga to'xtalib o'tsak, yani ijtimoiy davlat mavjudligini biz qaysi omillar faktorlarga qarab anglaymiz.

Yirik mulkdorlarga dahl qilmasdan, aholining daromadlari va boyliklarini qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasini mavjudligi;

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslanganligi;

Diversifikatsion va aralash iqtisodiyotning mavjudligi;

Fuqarolik jamiyatini shakllanganligi;

Davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqilishi;

Har bir insonga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxsiy o'zini o'zi anglash uchun teng boshlang'ich sharoitlarni ta'minlash, davlatning maqsadlarini tasdiqlash;

Fuqarolar oldidagi ijtimoiy javobgarlik;

Rivojlangan sug'urta ijtimoiy to'lovlari tizimi va byudjetni tashkil etuvchi soliqlarning ijtimoiy sohaga asosiy qismini yo'naltirilganligi;

Aholining barcha guruhlari uchun xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan tizimi;

Rivojlangan huquqiy tizimda hokimiyatlar bo'linishini amalga oshirilganligi, hokimiyatning har bir tarmog'ining vazifalari aniq belgilangan, ijtimoiy hayotning huquqiy-me'yoriy tizimi ishlab chiqilgan bo'lishi;

Byudjet ijtimoiy to'lovlarining mavjudligi;

Ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi;

Jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi;
Fuqarolarning farovonlik darajasi uchun davlat tomonidan javobgarlikni qabul qilishi;
Fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy davlatning asosiy belgilari ko'proq aholini qo'llab-quvvatlash va mamlakat boyliklarini adolat prinsiplari asosida teng taqsimlashdan iborat. Regulyativ funksiyalari xususida to'xtaladigan bo'lsak ushbu vazifalarni amalga oshirishda albatta davlat funksiyalarini o'rganib chiqamiz.

Davlat funktsiyalari bo'yicha ko'plab huquqshunos olimlar ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan, ular orasida A.X.Saidov, S.Safoev, X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzaqov N. G. Aleksandrov, V. K. Babaev, M. I. Baytin, A. B. Vengerov, L. I. Zagainova, L. I. Kaska, V.V.Lazarev, L.A.Morozovlar bor. Ularning fikriga ko'ra davlatning funktsiyalari uning mohiyatini va ijtimoiy maqsadini ochib beradi. Buning sababi shundaki, davlat hayotning turli sohalarida amalga oshiriladigan turli maqsad va vazifalar bilan tavsiflanadi va faqat uning funktsiyalarini bilish orqali anglash mumkin bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Davlat funktsiyalarining o'zi uning tuzilishiga, shuningdek, uning barcha elementlarini siyosiy va ma'muriy tizim sifatida tashkil etish usullariga bevosita ta'sir qiladi.

Hozirgi vaqtda davlat funktsiyalarini tushunishga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular davlatning rivojlanish tarixi va davlatni siyosiy va ijtimoiy tizim sifatida shakllantiradigan iqtisodiy muhit ta'sirida bo'lgan va ta'sir qilishda davom etmoqda. Agar XX asrning o'rtalarida davlat funktsiyalari uning sinfiy mohiyatining ifodasi va spetsifikatsiyasi bo'lib xizmat qilgan [6], keyinchalik davlat funktsiyalari uni ob'ektiv va siyosiy jihatdan tavsiflovchi, uning ma'lum bir davridagi davlat mohiyatining u yoki bu tomonlarini aks ettiruvchi narsa deb atala boshlandi. Boshqacha aytganda, bu uning davlat faoliyatining mazmunidir [7].

L.I.Kask davlat funktsiyalarini uning sinfiy va umumiy ijtimoiy maqsadini tavsiflovchi faoliyati mazmunining shunday tomonlari deb tushundi [8].

Ijtimoiy davlat funktsiyalari:

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;

Korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;

Yosh tadbirkorlarga yordam;

Aholining bandligini va daromadlarining doimiy o'sishini ta'minlash;

Jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlash;

Ta'lim, sog'liqni saqlash va ma'naviy-madaniy rivojlanishdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

Ehtiyojmand shaxslarni ijtimoiy himoya qilish;

Jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitini yaratish;

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish [9].

Davlatning asosiy funktsiyalari davlat faoliyatining ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari bo'lib, ular birinchi navbatda eng muhim ichki muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Davlatning mavjudligi, uning jamiyat ishlarini boshqarishdagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari, ularga xos shakllarda va o'ziga xos usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

XULOSA.

Davlatning funktsiyalari umuman fan uchun ham, xususan yuridik fan uchun ham qiziqish uyg'otadi, chunki ularning mazmuni doimo dinamik, cheksiz o'zgaruvchan hodisadir.

Bunday holda, ba'zi omillar, shu jumladan ob'ektiv ravishda mavjud bo'lganlar ta'siri ostida yuzaga keladigan davlat funktsiyalaridagi o'zgarishlar puxta rejalashtirishni talab qiladi.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi birinchi marta 1850 yilda Lorens fon Shtayn tomonidan ishlatilgan. U davlatning funktsiyalariga "turli xil ijtimoiy tabaqalar uchun, o'z hokimiyati orqali o'zini o'zi belgilaydigan individual xususiy shaxs uchun huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlash"ni kiritdi. Shtaynning nazariyasiga ko'ra, davlat o'zining fuqarolariga iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordamlashishga majburdir, chunki pirovard natijada birining rivojlanishi boshqasining rivojlanishi uchun shartdir va shu ma'noda ijtimoiy davlat hisoblanadi. Lorens fon Shtayn davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlik o'rnatish, kam ta'minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko'tarishdan iborat deb hisoblardi” [8]. Shuning uchun, fanda davlat funktsiyalarining

uning faoliyatini asosiy yo'nalishlari sifatidagi umume'tirof etilgan talqinlariga asoslanib va davlatning funktsiyalarini tahlil qilganda, uning davlat organlari faoliyatining turini aniq tushunamiz, davlat funktsiyalarining mazmuniga ularni amalga oshirishning predmeti, maqsadlari, usullari, shakllari va vositalari kiradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz ijtimoiy davlat deganda davlat boshqaruvining professional sub'ektlari - davlat lavozimlarini egallab turgan shaxslar tomonidan davlat siyosatini amalga oshirish orqali amalga oshiriladigan davlat faoliyatining shunday yo'nalishi.

Ijtimoiy davlatning funktsiyalari davlat apparati va davlat hokimiyatining har bir organi faoliyatida maqsadli va ongilligi bilan ajralib turadi. Funktsiyalar davlatning maqsad va vazifalari o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni aks ettiradi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. T. 4. – Toshkent: Qomuslar, 1997. T. 3. – B. 475-476.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: Adolat nashriyoti, 2023. – 13-modda / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-son/ URL: <https://lex.uz/docs/-6445145> (ko'rilgan muddat: 24.09.2023).
3. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 47 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 108 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining 2023 yil 7 fevraldagi №04-152-sonli ma'lumotnomasi
6. Черноголовкин Н. В. Теория функций социалистического государства: монография. М., 1970. С. 8.
7. Денисов А.И. Сущность и формы государства. М., 1960. С. 9-10.
8. Каск Л.И. Функции и структура государства: монография / отв. ред. Д. А. Керимов. Л., 1969. С. 9.
9. Шарков Ф.И., Аверин А.Н. Основы социального государства. - М.: КНОРУС, 2016. - С. 60. - 312.
10. Сейтов А.П., Султанова Ф.М. Теоретическая сущность и характеристика механизмов взаимодействия государства и общества. Journal of social studies («JSSUZ», ISSN 2181-9556, DOI Journal). Том 4 № 2 (2021) // <https://www.tadqiqot.uz/index.php/soci/article/view/748> С. 36-43; Сабирова У. Ф. Социология как путь повышения интеллектуального потенциала общества Узбекистана //Журнал социальных исследований. – 2020. – Т. 3. – №. 5. <https://www.tadqiqot.uz/index.php/soci/article/view/1113>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000